

SAKSAFON IJROCHILIK SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Oripov Otabek Olimjon og'li

“Estrada cholg'ularida ijrochilik va dirijyorlik” kafedrası 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada saksafon ijrochilik san'atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, jaz musiqasining saksafon san'atiga ko'rsatgan ta'siri hamda XX asr musiqa madaniyatidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, saksafon ijrochiligining akademik va musiqa yo'nalishlari bilan o'zaro integratsiyasi, ijrochilik mahoratining shakllanish omillari, pedagogik yondashuvlar hamda nafas texnikasining ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada saksafon ijrochiligini o'qitishning metodik asoslari, o'quvchilarning fiziologik va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: saksafon, ijrochilik san'ati, jaz musiqasi, swing, improvizatsiya, nafas texnikasi, musiqiy pedagogika, puflama cholg'ular, ijro mahorati, musiqiy tafakkur, tembr, interpretatsiya, akademik musiqa, orkestr.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития искусства исполнительства на саксофоне, влияние джазовой музыки на саксофонное искусство, а также его место в музыкальной культуре XX века. Кроме того, с научной точки зрения освещены вопросы интеграции саксофонного исполнительства с академическими и музыкальными направлениями, факторы формирования исполнительского мастерства, педагогические подходы и значение техники дыхания. В статье также рассмотрены методические основы обучения игре на саксофоне, а также вопросы развития физиологических и музыкальных способностей учащихся.

Ключевые слова: саксофон, исполнительское искусство, джазовая музыка, свинг, импровизация, техника дыхания, музыкальная педагогика, духовые инструменты, исполнительское мастерство, музыкальное мышление, тембр, интерпретация, академическая музыка, оркестр.

Yangi standartlarning shakllanishi puflama cholg'ulari ijrochiligining mustaqil badiiy-estetik tizim sifatida rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur jarayon natijasida ushbu ijrochilik yo'nalishi boshqa san'at turlarining bevosita ta'siridan asta-sekin uzoqlashib, o'ziga xos ijro uslubi, texnik imkoniyatlari hamda interpretatsion mezonlariga ega bo'lgan alohida professional soha sifatida shakllandi.

Natijada puflama cholg'u ijrochiligida musiqiy tafakkur, texnik mukammallik va individual ijro madaniyati ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

Xususan, saksafon san'ati taraqqiyotida jaz musiqasining ta'siri muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Jaz san'atining ritmik erkinligi, improvizatsion

xususiyatlari hamda o'ziga xos melodik va garmonik murakkabligi saksafon ijrochiligida yangi texnik va badiiy imkoniyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bu holat ijrochidan nafaqat yuqori texnik tayyorgarlikni, balki turli musiqiy yo'nalishlar va janrlarga moslasha olish qobiliyatini ham talab etdi.

Zamonaviy ijrochilik amaliyotida saksafon estrada ansambllari, kamer va simfonik orkestrlar tarkibida faol qo'llanilishi natijasida uning funksional imkoniyatlari yanada kengaydi. Ayniqsa, akademik va ommabop musiqa yo'nalishlarining o'zaro integratsiyasi saksafon ijrochiligini serqirra va universal san'at turiga aylantirdi. XX asr davomida saksafon ijrochiligi sezilarli darajada takomillashib, vibrato kabi yangi ifoda vositalari va texnik usullar keng qo'llanila boshlandi. Bu esa saksafonning badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, bastakor va musiqachilarning ushbu cholg'uga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi. Natijada saksafon nafaqat orkestr va ansambl tarkibida, balki mustaqil konsert cholg'usi sifatida ham e'tirof etildi.

Saksafon san'ati taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan omillardan biri jaz musiqasining shakllanishi va ommalashuvi bo'ldi. Afro-amerika musiqiy an'analari va folklor elementlari uyg'unligida yuzaga kelgan jaz qisqa vaqt ichida Yevropa musiqa madaniyatida ham keng tarqaldi. Jaz musiqasining o'ziga xos ritmik tuzilishi, improvizatsiyaga asoslangan ijro tamoyillari hamda erkin melodik rivoji saksafon imkoniyatlarini yanada boyitdi. Fransuz bastakori Darius Milhaud jaz musiqasining badiiy-estetik imkoniyatlarini yuqori baholab, ayniqsa uning ritmik effektlari va tembr uyg'unligiga alohida e'tibor qaratgan. Jaz san'ati vaqt o'tishi bilan XX asr musiqa madaniyatining muhim badiiy hodisasiga aylandi. XX asr boshlarida saksafon asosan jaz ijrochiligining muhim atributi sifatida qaralgan bo'lib, akademik musiqa an'analari ustuvor bo'lgan Amerika musiqa ta'limi tizimida yetarli darajada e'tirof etilmagan edi. Natijada ushbu cholg'uning professional-akademik ijrochilik maktabi va metodik asoslari sekin shakllandi. 1930-yillarga kelib jaz musiqasining ommaviylashuvi saksafonga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, sving uslubining shakllanishi va ommalashuvi saksafon ijrochiligiga kuchli turtki berdi. Sving davrida saksafon jaz musiqasining yetakchi cholg'ularidan biriga aylandi. Mazkur davrda katta jaz orkestrlarining shakllanishi saksafon ijrochiligini yangi bosqichga olib chiqdi. Saksafon guruhlarini keng diapazon va boy tovush imkoniyatlari tufayli ommalashdi. Jaz musiqachilari saksafonning konsert cholg'usi sifatidagi imkoniyatlarini namoyon qilib, uning san'atdagi mavqeini mustahkamladilar.

Sving davri ijrochilarining musiqiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar nihoyatda yuqori bo'lib, ijrochidan mukammal texnik mahorat, improvizatsion tafakkur, notani tez o'qish qobiliyati hamda ansambl bilan uyg'un ijro etish ko'nikmalarini talab qilardi. Natijada akademik musiqa bilimlari bilan jaz improvizatsiyasini uyg'unlashtirgan yangi avlod musiqachilari shakllandi.

Saksafon nisbatan yosh cholg'u asbobi bo'lib, uning ixtirochisi belgiyalik Adolphe Sax (1814–1894) hisoblanadi. U uzoq tajriba va izlanishlar natijasida 1840-yillarda o'z nomi bilan atalgan yangi cholg'u asbobini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Saksafon o'zining

yumshoq, rang-barang va o'ziga xos tembri bilan boshqa puflama cholg'ulardan ajralib turardi. Keyinchalik Adolphe Sax saksafon oilasini yaratdi. Ushbu oilaga sopranino, soprano, alto, tenor, bariton va bas saksafonlar kiradi. Ularning har biri tovush diapazoni va tembr xususiyatlari bilan farqlanadi. Saksafon ijrochiligini o'rgatish jarayonida talabani individual anatomik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alto-saksafon boshlang'ich ta'lim bosqichida eng maqbul cholg'ulardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu cholg'u tovush hosil qilishning qulayligi, aplikatura tizimining soddaligi hamda boy tembr imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Pedagogik kuzatishlarga ko'ra, saksafon chalishni 8–10 yoshdan boshlash optimal davr hisoblanadi. Biroq o'quvchini cholg'uni o'rganishga qabul qilishdan avval uning fiziologik holatini baholash zarur. Lablar, til, jag' apparati, tishlar tuzilishi, qo'l va barmoqlarning harakatchanligi, nafas olish tizimining rivojlanganlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Saksafon ijrochiligida nafas texnikasi alohida o'rin tutadi. Nafas olish va chiqarish jarayonining to'g'ri boshqarilishi tovush sifati, frazalash, dinamika hamda ijro barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ijrochida diafragmal nafas olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda: Saksafon XX asr musiqa madaniyatida eng serqirra va universal puflama cholg'u asboblardan biri sifatida shakllandi. Jaz musiqasining rivojlanishi ushbu cholg'uning texnik va badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, uning nafaqat ommabop, balki akademik musiqa san'atida ham mustahkam o'rin egallashiga sabab bo'ldi. Shuningdek, saksafon ijrochiligini o'qitish jarayonida o'quvchilarning individual fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, nafas texnikasini to'g'ri shakllantirish hamda musiqiy qobiliyatlarni muntazam rivojlantirish professional ijrochini tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ijro metodikasi saksafon san'atining yanada takomillashishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. СС Болта-Зода. Принципы и приложения музыкальной формы. Science and Education 5 (2), 432-438
2. СБ Саидий. Нестандартные психологические структуры и модуляция в педагогике. Science and Education 5 (2), 348-354
3. СС Болта-Зода. Обменное приёмы аккордов семейство субдоминанты и доминанты использование на фортепиано. Science and Education 5 (2), 439-444
4. СБ Саидий. Художественно-педагогическое общение как средство формирования музыкальной мотивации школьников. Science and Education 5 (2), 322-327